

O'QUVCHILARNING IJTIMOYILASHUV JARAYONIDA MULOQOT FUNKSIYALARINING MAVJUD HOLATI

Choriyeva Shahnoza Yo'ldoshevna

Angor tumani 1-umumta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

Ishpo'latov Baxrom Rajabovich

Angor tumani 39-sonli umum ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya

Ushbu maqola o'quvchilarning ijtimoiylashuv jarayonida muloqot funksiyalarining mavjud holati va O'quvchilarning ijtimoiylashuv jarayonida muloqot funksiyalari pedagogik muammo sifatida haqida yozilgan. O'qituvchilarning o'zaro axborot almashishi bilan bog'liq xususiyatlari, uning sinf jamoasiga singib keta olish qobiliyati bilan bog'liq. Sinf jamoasida ro'y berayotgan har qanday voqea va hodisalar o'qituvchilar nazoratida bo'lishi, ularning oqibatini o'qituvchilar tez va adolatli tahlil qilishi va oldini olishi lozim.

Kalit so'z: sinf, o'qituvchi, kreativ, qobiliyat, rivojlantirish, metodika, ilmiy, nazariy.

Muloqot-insonlarning ma'lum bir jamoda yoki guruhda ijtimoiylashuvdagi faoliyatlari jarayonida vujudga keladigan ehtiyojlaridan bo'lib, faoliyatlari davomida o'zaro munosabatlarga kirishishi jarayoni hisoblanadi. Muloqot funksiyalari xamma joyda kerak. Ish joyda, transportda, uyda umuman shaxs bo'lib o'z meniga ega insonlarda mavjud, shuning uchun ham biz kim bilan qanday muloqot (muomila) qilishni bilishimiz kerak. Insonning qanchalik bilimli, aql-zakovatli ekanligi uning muloqoti orqali namoyon bo'ladi[1]. Muloqot jarayonida o'qituvchi qisqa muddatda o'zining psixologik bilimlariga tayanib o'quvchilarning psixik xususiyatlarini mukammal bilishga harakat qilishi lozim. O'quvchilarning ichki dunyosiga, ruhiy holatiga kirib bormasdan, unga nisbatan turli tarbiyaviy jazolar qo'llash, tanbeh berish mumkin emas. Bu holat o'quvchilar bilan o'zaro muloqotni tuzatib bo'lmas darajada buzilishiga, o'quvchilarning yashirin holatga, o'z "qobig'i"ga kirib olishiga sabab bo'ladi[2]. Bu faqat faol o'quvchilar bilan axborot almashib turish natijasida amalga oshiriladi. Shundagina, o'qituvchining o'quv tarbiyaviy jarayondagi faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratiladi va ijobiy natijalar beradi[3]. O'qituvchi ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni o'quvchilar bilan birgalikda tashkil etadi. Bunda sinfning faol o'quvchilari hamda norasmiy liderlari bilan o'zaro muloqotning adolatli bo'lishi muhim ahamiyatga ega: o'quvchilarni tarbiyaning turli elementlarini ongli ravishda mustaqil ajarishga jalb etish, bunda o'quvchilarga tashkilotchilik va ijro etish rollarini bajarishga imkoniyat yaratib berish lozim.

O'qituvchining to'g'ri tashkil etilgan muloqoti o'quvchining o'zligini anglash funksiyasini takomillashtiradi[4]. Bunda o'qituvchining vazifasi muloqot asosida o'quvchilarga o'zining "Men"ligini anglashni, shaxs sifatida o'z fikrini dadil va erkin gapirishni, jamoada o'z o'rnini

bilishni, o'z-o'zini baholashni o'rgatishi kerak. Pedagogik muloqot tuzilishi jihatidan o'qituvchi ijodkorligining noyob namunasidir[5]. Pedagog olimlar o'qituvchining o'quvchilar bilan muloqotiga ko'plab tavsiflarni ilmiy asarlarida bayon etsalarda, muloqot avvalo, o'qituvchining shaxsiy psixologik xususiyati sifatida namoyon bo'ladi.

Olimlar esa, muloqot uchun o'qituvchiga yo'nalish beradi xolos. Jumladan, rus pedagogi V.A.Kan-Kalikning fikricha, o'qituvchining pedagogik muloqoti tuzilishi quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

Modellashtirish bosqichida auditoriyaning barcha andozalarga javob berishi, har bir o'quvchining psixologik xususiyatlarini o'rganishi, ta'lim-tarbiyaviy jarayonda uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar dinamikasini oldindan ko'ra olish va bartaraf etish, muloqotning o'zaro hamkorlik asosida qurilishi, ya'ni muloqot o'qituvchi shaxsiga emas, balki o'quvchi shaxsiga ham mos kelishini ta'minlash zarur[6]. Kommunikativ aloqa bosqichida sinf jamoasini o'zaro muloqotga tez jalb etadigan suhbat texnikasini puxta bilish, ularning barcha qiziqishlariga javob bera olish, erkin fikr bildirishlariga imkoniyat yaratish va o'quvchilar ongiga ijobiy ta'sir etishning turli usullarini qo'llash metodlarini egallash lozim[7]. Pedagogik jarayon bosqichida o'qituvchining faoliyati bevosita ta'lim-tarbiyaviy ishlarni ma'lum bir yo'nalishga solish, o'quvchilar tashabbusini qo'llab quvvatlash, sinf jamoasining rasmiy va norasmiy liderlari bilan adolatli muloqotni tashkil etish, o'z fikrlarini jamoa fikrlari bilan real sharoitga moslashtira olish ko'nikmalarini yaratish kabi faoliyat olib boriladi[8].

Natijalar tahlilida o'qituvchi o'z faoliyatiga xolisona baho berishi, yutuq va kamchiliklarni inobatga olib, kelgusi ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida tanqidiy qo'llashni bilishi lozim, ushbu yo'nalishda maqsad, reja va natijalarning birligi ta'minlanadi, o'quv-tarbiya jarayonida o'qituvchi o'quvchilar bilan muloqotni tashkil etish va boshqarishda rahbarlikni, tashabbuskor bo'la olishni bilishi kerak[9].

O'quvchilarning axloqiy jihatdan tarbiyalanganligi uning atrof muhitga nisbatan bo'lgan munosabatlarida ham namoyon bo'ladi. Axloqiy tarbiyalanganlik o'quvchining his tuyg'ularida ichki kechinmalarida ifodalanadi va xulq atvorida, o'qituvchi bilan muloqot jarayonida yuzaga qalqib chiqadi. O'quvchilar bilan yaqin munosabatda bo'lish va mehribonlikni namoyish etish, o'qituvchining sinf jamoasi bilan munosabatda to'g'ri va odilona muloqotini tashkil etishda asosiy zamin bo'ladi. Muloqot turli rollar orqali shaxs faoliyati uchun ijtimoiy maydon yaratadi, shaxsning ijtimoiy xulq-atvorini shakllantiradi[10]. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida o'zining shaxsiy tashabbuskor va rahbarlik rolini namoyish etadi. Dars jarayonida esa o'qituvchi o'quvchilarni tashkilotchi va ijrochi rollarida bo'lishga imkoniyat yaratishi kerak. Muloqot asosida shaxs o'zligini tanishni o'rganadi. O'qituvchi darsni rejalashtirar ekan, faqat o'rganilayotgan dars mavzusi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida o'quvchilarni axborot ko'lamiga jalb etishni o'ylamasligi kerak, balki o'qituvchining yordamiga muhtoj bo'lgan o'quvchilarni topishi, ularga yordam berish uchun

sharoit yaratishi, har bir o'quvchining qiziqishini ta'minlovchi sharoitlarni ko'ra olishi va o'zaro hamkorlikni ta'minlashi lozim. Pedagogik faoliyatda o'qituvchi muloqot asosida o'quvchilar bilan yaxshi munosabatni tashkil eta olishi, demokratik talablarni qo'llashi va birgalikda ijodiy faoliyat olib borishi kerak[11]. Pedagogik muloqot esa, bu o'qituvchi kasbiy faolligining bir ko'rinishi bo'lib, bunda ta'lim va tarbiya muammolari o'qituvchi hamda o'quv-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro ta'sir vositasi bilan hal qilinadi.

Muloqotning har uchala tomonini yaxlit olib qaraganda o'zaro hamkorlik faoliyatini tashkil qilishning usullari va unda ishtirok etuvchilarning munosabatlari yaqqol namoyon bo'ladi. Pedagogik muloqot muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun, o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlik faoliyatiga chuqur kirishib keta olishi, shaxsni har tomonlama shakllantirishning maqsad va vazifalarini chuqur anglab, faoliyat olib borishi lozim[12]. Odamlar butun ichki dunyosini, maqsadini, muomala va munosabatlarini bir-birlariga so'z yordamida yetkazadi, amalga oshiradi. Shu tufayli muloqotda kishilarning muomalalari yoqimli bo'lishi zarur[13]. Bundaylarni odamlar yoqtiradi, hurmat qiladi. Muloqot ham o'ziga xos san'atdir. Bu san'atni mukammal o'rganish har bir insonga zarur. Shu bilan birga, ona tilini mukammal o'rganmoq har bir insoning muqaddas burchidir. Tilni bilgach: uni ishlata bilish san'atini egallamoq inson uchun zarurdir. Muloqot jarayonida shirinso'zlik va go'zal nutq hech qachon, hech qayerda sotilmaydi[14]. Bunga erishmoqlikning birgina yo'li bor, bu ham bo'lsa tinimsiz shirin so'zlashash mashq qilmoqlikdir. Bu esa asosan ko'p kitob o'qish yo'li bilan amalga oshiriladi. Muomala insonning kimligini ko'rsatuvchi yuzidir.

Izlanishlarning ko'rsatishicha, pedagogning o'quvchilarga nisbatan bo'lgan ijobiy munosabati, ularga tiniq, bosiq tonda murojaat qilishi o'quvchilarda erkinlikni his qilishda yordam beradi. O'quvchilarga noto'g'ri munosabatda bo'lish ularda ishonchsizlik kam gap bo'lishiga, o'quvchilarda laganbardolik kabi yomon fazilatlar shakllanishiga olib keladi. Muloqotga ta'rif bersak, bu so'zlashuv, suhbatlashuv, shaxslararo suhbat va fikr olishuv, og'zaki nutq shakli bo'lib, ikki yoki undan ortiq shaxslarni so'zlashuvidir[15].

Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayirboshlashni o'z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ jihatini hisobga olinadi. Kishilar munosabatga kirishishda avvalo tilga murojaat qiladilar[16]. Muloqotning yana bir jihatini munosabatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati - nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki harakatlar bilan ham ayirboshlashdan iborat. Masalan, munosabatga kirishar ekanmiz, u bizni qoniqtirsa imo-ishora bilan muloqotda bo'lamiz. Munosabatning keyingi jihatini muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlaridir[17]. Masalan, biz bir kishi bilan muloqotga kirishishdan avval uni hurmat qilib yoki mensimasdan munosabatda bo'lamiz. Aynan muloqot davomida uning haddi-harakatlarini kuzatamiz, uning o'zini tutishi va hokozalar tufayli, muloqotdoshimizga qaysidir ma'noda fikrimiz o'zgaradi. Demak muloqot insonning muhim jihatlaridan biri sanalib insonning muloqot ma'daniyati kishilarda

salbiy va ijobiy fikrlarni paydo bo'lishini ta'minlaydi[18]. Bizning yuksak ma'naviy ehtiyojlarimizdan biri-bu muloqotga bo'lgan ehtiyojdir. Muloqotga bo'lgan ehtiyojimiz qondirilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi. Shuning uchun biz doimo muloqotga bo'lgan ehtiyojlarimizni qondirishimiz lozim. Kimlar bilandir bo'lgan muloqotdan qoniqish hosil qilamiz, lekin ayrim hollarda esa biz qoniqmaslikni his qilamiz[19].

O'quvchi shaxsining shakllanishida muloqot odobining yetakchi rol o'ynashi uning har bir o'quvchining shaxs sifatida shakllanishida muhimlikni taqozo etadi. Tarbiya jarayonida har bir o'quvchini diqqat bilan o'rganish, uning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini bilish, pedagogik nazokatni namoyon qilish, o'quvchilarning xulq-atvorini ish natijalarini haqqoniy baholash kerak, ularga o'z vaqtida yordam ko'rsata olish, oiladagi ahvol bilan qiziqish zarur. Bu borada tarbiyachining pedagogik mahorati asosiy o'rin tutadi[20]. Har bir oila tinchligi qobil insofli farzandlar voyaga yetkazishga bog'liq. Hadisi sharifda farzandga ota-ona qoldirgan eng qimmatbaho kiyim bu muloqot odobidir. Farzandlarni muloqot odobiga o'rgatish ota-ona uchun ham farz ham qarzdir. Muloqot odobining dastlabki kurtaklari oilada shakllanadi. Shu sababli umumiy va milliy qadriyatlarimiz, xalq og'zaki ijodiyoti pandnoma va xalq yodgorliklarida muloqot odobi va muloqot odobililikka katta e'tibor qaratilgan[21]. Birinchi prezidentimiz Muloqot odobi o'quvchilikdan shakllanadi. O'quvchi ulg'ayishi bilan muloqot odobi darajasi kengayib boradi. Muloqot odobi kishi faoliyatini belgilovchi jarayon bo'lib, uni barcha xatolardan saqlaydi[22]. Natijada uning xulqiy go'zalligi ortadi. Islom dinida belgilangan muloqot odobi mezonlari umuminsoniy muloqot odobi mezonlari bilan chambarchas bog'liqdir. Chunonchi, «Qur'oni Karim» Inson kamolotining asosiy dasturidir. Unda insonni yuqori cho'qqiga ko'tarishga ahamiyat berilgan. «Qur'oni Karim» ning har bir oyatida kishining kundalik hayotida muloqot odobi mezonlariga og'ishmay amal qilishini ko'rsatadi[23].

Muloqot odobi deganda biz tarbiyali degan tushunchani anglaymiz. Muomalali kishi el o'rtasida e'zozlidir. Muloqot odobi insoniy fazilat kishi qadrini baland qiluvchi qimmatli sifatidir. U ta'lim - tarbiyaning asl mevasidir. Aqlning suyanchig'i hisoblangan muloqot odobi barcha fazilatlarining sha'ni va xikmatidir[24]. Dono xalqimizning "Adab bozorda sotilmas", "Muloqot odobi kishi uchun ulug'lik va fazilatdir", "Muloqot odobi yo'qning aqli ham yo'q"¹, kabi naqlari bejiz aytilmagan. Shunday ekan, aql va muloqot odobi bir-biriga bog'liq, insonda xar ikkovi mavjud bo'lsagina o'sha inson kamol topadi[25]. O'zbekistonning mustaqilligi tufayli ota-ona o'quvchimiz axloq-muloqot odobi haqidagi hikoyatlari, naql va rivoyatlari yosh avlodda milliy qadriyatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, muloqot odobi va axloqiy ezgulik, insoniylik kabi ma'naviy qadriyatlar shaxs kamolotida dasturamal bo'lib kelmoqda. Axloq-ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanib, har bir kishining jamiyat va oiladagi yurish-turishi, tartib qoidalarining yig'indisi sifatida gavdalanadi[26]. Demak,

¹ Husanov. B, G'ulomov. B "Muomala madaniyati" T.: Ta'lim nashriyoti 2009. -118 b.

jamiyatga, oilaga, mehnatga bo'lgan munosabatda axloq namoyon bo'ladi. Inson xatti-harakatidagi, xulqidagi yo'nalishlar, eng muhim belgilar mujassamlanib, shaxs faoliyatida, uning kamol topishida xulq qoidasining asosi bo'lib qoladi. Axloq faqat tartib intizom o'zini tutishi bilan chegaralanmasdan inson muloqoti o'zgalar bilan munosabatni qay tarzda olib borish jarayonida namoyon bo'ladi. Shunday ekan o'quvchilarda muloqot odobini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi[27].

Pedagogikada muloqot o'qituvchi va o'quvchilar jamoasining o'zaro ta'sir malakasi, usuli va tizimini anglatib uning mohiyati, o'zaro axborot almashishida, ta'lim va tarbiyaviy ta'sir o'tkazishida, o'zaro bir-birlarini tushunishga erishishlarida namoyon bo'ladi hamda quyidagi xususiyatlarga ega:

muloqot o'qituvchining pedagogik faoliyatida eng muhim kasbiy qurol hisoblanadi;

muloqot jarayonida uning maqsadga muvofiq amalga oshirishni ta'minlash uchun ijtimoiy nazorat va ijtimoiy qonuniyatlar muhim ahamiyatga ega;

o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarining eng muhim tarkibiy qismi muloqot sanalib, motivatsiyada motiv qanday ahamiyat kasb etsa, u ham xuddi shunday muhim rol o'ynaydi; pedagogikada muloqot – o'qituvchining o'quvchilarga ta'sir o'tkazish asosida o'zaro munosabatini faol tashkil qilishi, muayyan bir maqsadni dastur asosida amalga oshirishning rejalashtirilgan funksiyasini bajarishidir[28];

muloqot – hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan vujudga kelib chiqadi va shaxslararo munosabat rivojlanishining ko'p qirrali jarayoni hisoblanadi;

noto'g'ri pedagogik muloqotdan o'quvchilarda qo'rquv, o'z kuchiga ishonchsizlik paydo bo'ladi, ularning diqqat-e'tibori, ishchanlik harakati susayadi, nutq dinamikasi buziladi, mustaqil va erkin fikrlash qobiliyati pasayadi.

Pedagogik muloqot – bu o'qituvchining o'quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari faoliyatda eng qulay psixologik muhitni vujudga keltirib, ijobiy ruhiy iqlimni yaratishi uchun imkoniyat beruvchi kasbiy munosabatidir o'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro yaqin muloqotidan asosiy maqsad[29]:

-salbiy holatlarni vujudga keltiruvchi barcha jarayonlarga barham berish;

o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish;

o'quvchilarni faollikka, erkin fikrlashga, o'z fikr mulohazalarini cho'chimasdan bayon qilib unga tayanishga o'rgatish;

o'quvchilarning yashirin qobiliyatlarini rivojlantirish;

dars va darsdan tashqari jarayonlarda quvonch va shodlik kayfiyatini paydo qilish.

V.D.Suxomlinskiy o'qituvchining "...maktab hovlisida gapirgan har bir so'zi puxta o'ylangan, aql va mulohazalarga boy, ma'lum bir tarbiyaviy maqsadga qaratilgan bo'lishi kerak"² deb ta'kidlaydi. O'qituvchining har bir so'zi olimning fikricha, nafaqat o'quvchi

² Maqsudova. M Muloqot psixologiyasi. T.: «Turon-iqbol» 2006. -47-236- b

qulog'iga aytiladi, balki uning qalbiga ham qaratilgan bo'lishi shart. Umuman ilg'or o'qituvchilarning fikricha, ta'lim va tarbiya faqat o'qituvchi va o'quvchining o'zaro hamkorlik pozitsiyasi asosidagi muloqot jarayonida quriladi[30].

O'qituvchining pedagogik muloqoti ijtimoiy-psixologik jarayon bo'lib, quyidagi funksiyalar bilan harakterlanadi:

- o'quvchilarning psixik holatini mukammal bilish;
- o'zaro axborot almashishni yo'lga qo'yish;
- ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni birgalikda tashkil etish;
- o'quvchilarni erkin fikr-mulohaza yuritishga o'rgatish;
- salbiy holatlarni sinf jamoasi bilan birgalikda bartaraf etish;
- do'stlar uchun qayg'urish va ularga yordam berishga o'rgatish;
- o'zligini anglash, o'quvchilar bilan muloqotda qoniqish his etish.

Shu o'rinda o'quvchilar bilan muloqot qilishning o'ziga xos xususiyatlarini keltirib o'tmoqchimiz:

1.O'quvchilar bilan muloqot qilish funksiyalarining individual shaxsiy xususiyatlarini o'rganishi:

- o'quvchilar shaxsiy xususiyatlarini mustaqil tahlil qilish;
- o'quvchilar ichki imkoniyatlariga har tomonlama tavsif berish;
- o'qituvchining muloqot funksiyalarini to'g'ri tashkil etishi.

2.Shaxsiy muloqotda ro'y beradigan kamchiliklarni darhol bartaraf etishi:

- kamchiliklarga barham berish choralarini darhol izlab topish;
- har qanday vaziyatda o'quvchilarga qo'pollik qilmaslik[31];
- o'quvchi shaxsini mensimaslik kabi salbiy holatlarni bartaraf etish.

3.O'qituvchi o'zi uchun muloqot funksiyalarining eng qulay bo'lgan uslublarini tanlab olishi: pedagogik faoliyatiga monand muloqot funksiyalari modelini ishlab chiqishi;

- o'z-o'zini kuzatish bilan muloqotdagi yutuq va kamchiliklarini muntazam taqqoslab borishi;
- muloqotda milliy ma'naviyatimiz, urf-odat va an'alarimiz imkoniyatlaridan doimiy foydalanish.

4.Muloqot funksiyalarida pedagogik faoliyat qonuniyatlaridan chetga chiqmaslik[32]:

- har bir o'quvchining individual xususiyatlariga mos muloqot tizimini ishlab chiqishi;
- muloqotning tarbiyaviy ta'sirini va samarasini e'tirof etish;
- muloqot funksiyalari asosida pedagogik mahoratni namoyish etish.

Yuqorida keltirilgan xususiyatlar ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiylashuvida muloqot odobini tarbiyalashning asosiy shart-sharoitlarining birlamchisi deb bildik negaki yoshlarimizning individual xususiyatlariga mos holda ijtimoiylashish va muloqotni tashkil etish ta'limiy va tarbiyaviy bilimlarning samaradorligida muhim ahamiyat kasb etadi[33].

Muloqot-pedagog faoliyatini eng muhim professional qurolidir. Pedagogik muloqot-qulay psixologik muhit yaratish maqsadida o'qituvchining o'quvchi bilan dars va undan tashqaridagi haqiqiy muloqotidir. Noto'g'ri pedagogik muloqot o'quvchida qo'rquv, ishonchsizlik tug'diradi, diqqati, xotirasi va ish qobiliyatini susaytiradi, nutq me'yorini buzadi. Natijada, o'quvchilarda steriotip fikrlar vujudga keladi[34]. Ularni o'qishga va mustaqil o'rganishga, fikrlashga bo'lgan qiziqishlar susayadi. Oqibat natijada, o'quvchilarda o'qituvchiga, uning faniga nisbatan muayyan salbiy munosabatlar uzoq vaqt shakllanib qoladi[35].

Muloqotning eng muhim funksiyalaridan biri-hamdard bo'lishdir. U boshqa kishi hissiyotlarini tushunish, boshqalar nuqtayi nazarini ma'qullash qobiliyatini shakllantirish jarayonida amalga oshadi va jamoadagi munosabatlarni me'yorga keltiradi. Bunda o'quvchini, uning istaklarini tushunish va bular asosida o'quvchiga ta'sir etish zarurligi anglash o'qituvchi uchun juda muhimdir. Muloqot funksiyalarini bilish o'qituvchilar uchun dars va undan tashqarida o'quvchilar bilan bo'ladigan muloqotlarni yaxlit jarayon sifatida tashkil etishga yordam beradi[36].

Darsga tayyorgarlik ko'rayotganda muloqotning barcha funksiyalaridan kompleks foydalanishga erishish zarur. Darsni rejalashtirayotganda faqat axborot berish haqida emas, balki o'quvchilarning o'z shaxsini namoyon qilishlarini va o'z shaxsiy qobiliyatini ham ko'rsata olishga sharoit yaratishni ham rejalashtirishi zarur[37]. Bunda ayniqsa, o'qituvchi yordamiga muhtoj bo'lgan o'quvchilarga alohida e'tibor berish, har bir o'quvchini qiziqtirish usullarini, ijtimoiylashuv va ijodkorlikka asoslangan mehnatni tashkil etishni oldindan o'ylab qo'yish lozim. Muloqot bo'yicha yirik mutaxassis olim Kan-Kalik fikricha, professional pedagogik muloqot tarkibi quyidagilardan iborat: sinf-guruh bilan bo'ladigan muloqotni pedagog tomonidan modellash (loyihalash); o'zaro ta'sir ettirishning dastlabki onlarida bevosita faol muloqot olib borish (kommunikativ hujum); pedagogik jarayon davomida muloqotni boshqarish; amalga oshirilgan tahlil qilish va uni kelgusi faoliyat uchun modellash[38].

«Kommunikativ hujum» - o'z-o'zidan ma'lum bunda o'qituvchi o'quvchilarni tezda jalb qilish texnikasini bilishi, dinamik ta'sir va o'zini salobatli qilib ko'rsatish usullarini egallashi zarur. Tabiiyki, o'qituvchi muloqotni, o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashabbuskori va yetakchisi bo'lishi zarur. Buning uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- "biz" sezgisini vujudga keltirish;
- o'quvchilarga ta'sir etishda shaxs aspektlarini kiritish;
- o'zini sinf (guruh) haqida ijobiy fikrga ega ekanligini his ettirish;
- faoliyatning aniq maqsadlarini ko'rsatish;
- o'quvchilarning ichki hissiyotlarini tushunish va ularga buni sezdirishi;
- ayrim o'quvchilarga nisbatan shakllanib borayotgan steriotip fikrlarni o'zgartirish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik ijtimoiylashuv texnologiyasi va milliy muloqot funksiyalarini rivojlantirish uni rivojlanishiga ta'sir etuvchi turli omillardan xalos etib,

o'quvchi o'qituvchi o'rtasida do'stona, erkin muloqot yaratish shart-sharoitlarning amalga oshirilishi zarurdir[39]. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarning - ta'lim jarayonidagi tarbiya beruvchilarning samarali metodik yondashuv asosida ish ko'rishlari ya'ni pedagogik ijtimoiylashuv texnologiyasini to'g'ri qo'llay olish yoshlarda milliy tushunchani o'stirish barobarida ta'limning har bir bo'linishida tizimlilikka asoslangan holda nutqini o'stirib muloqot funksiyalarini oshirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Abduraimovna, S. D., & Abduraimovna, X. D. (2023, January). O 'ZBEK ADBIYOTI TARAQQIYOTIDA AYOL SHOIRALARNING O 'RNI. In E Conference Zone (pp. 95-98).
2. Донаева, III. (2022). Refleksion o 'qitishga innovatsion yondashish va refleksiv texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etishning psixologik jihatlari. Общество и инновации, 3(2/S), 367-372.
3. Abduraimovna, D. S. (2023). TYPES OF REFLEXIVE LEARNING TECHNOLOGIES IN THE PEDAGOGICAL EDUCATION SYSTEM. Open Access Repository, 4(03), 31-40.
4. Abduraimovna, D. S. The Culture of Environmental Safety and the State of Its Formation. International Journal on Orange Technologies, 2(10), 95-98.
5. Jumaeva, H. (2020). Some Shapes of Spiritual Attack, Its Influences and Outcomes for Educating the Youth. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(2).
6. Djumayeva, H. M. (2021). DEVELOPING THE PEDAGOGICAL MECHANISM OF PREVENTING STUDENTS FROM INTERNAL THREATS. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 331-338.
7. Джумаева, Х. М. (2018). ГЛОБОЛЛАШУВ ДАВРИДА, ЁШЛАРНИ МАЪНАВИЙ ТАХДИДЛАРДАН ҲИМОЯ ҚИЛИШ ОМИЛЛАРИ. Интернаука, (46-2), 70-71.
8. Djumayeva, H., & Turayev, A. (2022). METHODOLOGY OF COMBINATORY PROBLEMS SOLVING IN THE TIMSS INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM IN PRIMARY CLASS MATHEMATICS LESSONS. Eurasian Journal of Academic Research, 2(12), 1224-1228.
9. Muhammadjonovna, J. H. (2020). MODEL OF PROTECTION OF STUDENTS FROM INTERNAL THREATS AND ITS MAIN COMPONENTS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(12).
10. Қодирова, А. Б. (2022). АБУ АБДУЛЛОҲ МУҲАММАД ИБН АЛИ ҲАКИМ ТЕРМИЗИЙНИНГ “ОҚИЛЛАР ВА АЛДАНГАНЛАР” АСАРИДА НАФС ТАРБИЯСИНИНГ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ. Science and innovation, 1(B3), 119-124.

11. Қодирова, А. Б. (2019). The views of Al Khakim At-Termizi on the theory of cognition. *Psixologiya*, (1), 88-90.
12. Kodirova, A. B. (2022). ANALYSIS OF PSYCHOLOGICAL VIEWS IN THE WORKS OF AL-HAKIM AT-TERMIZI ACCORDING TO THE SCIENTIFIC CONTENT AND THE THEORY OF SUFISM. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(12), 1287-1292.
13. Kodirova, A. B. (2022). PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE USE OF THE MYSTICAL IDEAS OF AL-HAKIM AT-TERMIZI IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(12), 1281-1286.
14. Qodirova, A. (2022). УЛУФ МУҲАДДИС ИМОМ АТ-ТЕРМИЗИЙ ФАОЛИЯТИНИНГ ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ. *Science and innovation*, 1(B7), 1086-1090.
15. Abdullaeva, B., Yakubova, G., Mukhtarova, A., & Kodirova, A. (2020). Development of practical competencies of psychologists. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(6), 1143-1146.
16. ALIMARDANOVA, R. (2023). INTERPERSONAL NORMAL INDICATOR IN ESTABLISHING HEALTHY PSYCHOLOGICAL RELATIONSHIPS BETWEEN YOUNG BRIDE AND GROOM IN UZBEK FAMILIES. *World Bulletin of Social Sciences*, 18, 11-14.
17. Salokhitdinova, N. M. (2020). PROVIDING MEMBERSHIP BETWEEN TESTING AND INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMS FROM PRIMARY SCHOOL MATHEMATICS (An example of elementary school math). *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(12), 14-19.
18. Салохитдинова, Н. (2021). Development prospects of primary education integration (on the example of exact and natural sciences). *Общество и инновации*, 2(7/S), 221-225.
19. Салохитдинова, Н. (2022). Aniq va tabiiy fanlar tushunchalarining integratsiyasi (Aniq va tabiiy fanlar misolida). *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(3), 368-371.
20. Salohiddinova, N. (2022). INTEGRATION OF EXACT AND NATURAL SCIENCES CONCEPTS (On the example of exact and natural sciences). *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 3(11), 158-165.
21. Салохитдинова, Н. (2021). Перспективы развития интеграции начального образования (на примере точных и естественных наук). *Общество и инновации*, 2(7/S), 221-225.
22. Salokhitdinova, N. M. (2021). Current state of science integration in primary education. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 10(3), 533-537.

23. Muxlisa, E., & Oysuluv, U. (2022). MAQOL VA MATALLARNING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(2), 102-107.
24. qizi Xo'jayeva, M. F., & Uralova, O. B. (2022). INGLIZ VA OZBEK TILLARIDA HUNARMANDCHILIK TERMINLARINING SEMANTIK VA LINGVOSTATISTIK TAVSIFI (XARAKTERISTIKASI). Eurasian Journal of Academic Research, 2(3), 496-499.
25. Uralova, O. P. (2020). Comparative semantics of parental (father and mother) lexeme proverbs in English and Uzbek languages. ISJ Theoretical & Applied Science, 10(90), 422-425.
26. Saodat, B., & Oysuluv, U. (2022). Functional-Semantic Aspect of Psychological Terminology Collocations in English. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 9, 28-34.
27. URALOVA, O. P. Q. (2021). LEXICO-SEMANTIC FEATURES OF THE PROVERBS BY THE NAMES OF BEVERAGES AND VEGETABLES IN ENGLISH, RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, 12, 1165-1169.
28. qizi Saydillayeva, M. B. (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHIDA FAOLIYAT MARKAZLARINING AHAMIYATI. Results of National Scientific Research International Journal, 1(7), 420-424.
29. qizi Saydillayeva, M. B. (2022). TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK FAOLIYAT TURLARINI TASHKIL ETISH VA SAMARADORLIKKA ERISHISH YO'LLARI. YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS, 1(7), 121-127.
30. Сайдуллаева, М. Б., & Маъруфжонова, Р. Л. (2021). Эффективные способы организации обязательного однолетнего обучения детей 6-7 лет. Экономика и социум, (2-2 (81)), 180-183.
31. Ачилов, Н. А. (2018). Влияние учения Аль-Хаким Ат-Тирмизи в идейном наследии мыслителей influence of the teaching of al-hakim at-tirmisi in the ideal heritage of thinkers. Журнал выпускается ежемесячно, публикует статьи по гуманитарным наукам. Подробнее на, 70.
32. Abdugafforovich, A. N. (2019). Scientific theory of al-khakim at-termezi. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2019.
33. Achilov, N. THE GREAT TEACHER. SCIENTIST, THE OWNER OF ENCYCLOPEDIA KNOWLEDGE.
34. Ачилов, Н. А. (2019). Просветительские взгляды Аль-Хакима ат-Термези. Педагогическое образование и наука, (5), 16-19.
35. Achilov, N. A. (2022). Spiritual and Moral Education of Students through Al-Hakim At-Termini's Doctrine. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(2), 53-57.

36. ACHILOV, N. AL-HAKIM AT-TERMIZIYNING “QAYTARILGAN AMALLAR”(“AL-MANHIYOT”) ASARI VA UNING TARBIYAVIY ANAMIYATI. PEDAGOGIK MANORAT, 76.

37. Ачилов, Н. А. (2018). ПРОБЛЕМНАЯ СИТУАЦИЯ-ОСНОВНОЕ ЗВЕНО ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ. Вопросы педагогики, (3), 19-21.

38. Хидирова, И. (2019). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНФОРМАЦИОННОЙ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ЛЕКСИКЕ УЧАЩИХСЯ. In Молодой исследователь: вызовы и перспективы (pp. 93-96).

39. Хидирова, И. Н., & Гелдиева, Д. Э. (2020). ФОРМА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГЛАГОЛА В СОВРЕМЕННОМ АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In КУЛЬТУРОЛОГИЯ, ИСКУССТВОВЕДЕНИЕ И ФИЛОЛОГИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ВЗГЛЯДЫ И НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ (pp. 7-11).